


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

YUQORI HARORATLI JARAYON VA QURILMALAR

fanidan kurs loyihasini bajarish uchun

USLUBIY KO‘RSATMALAR



TOSHKENT – 2015

YUQORI HARORATLI JARAYON VA QURILMALAR fanidan

kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar. –T.: ToshDTU, 2015.

Tuzuvchilar: Shamsiyev K.S., Tashbayev N.T., Shaislamov A.Sh.,
Pulatova D.M.

Uslubiy ko‘rsatmalarda **“Yuqori haroratli jarayon va qurilmalar”**
fanidan kurs loyihasini hisoblash keltirilgan.

Uslubiy ko‘rsatmalar **5310100 –Energetika (Issiqlik energetikasi)**
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

ToshDTU ilmiy – uslubiy kengashining qaroriga asosan chop etishga
tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

N. A. Baratov

ToshIES O‘IchB. boshlig‘i

A.Sh.Axmedov

t.f.n., dots. Tosh DTU
«Elektromexanika va kabel
texnikasi» kafedrası mudiri

KIRISH

Ushbu ko'rsatmada alangali qizdirish pechlarini hisoblash va loyihalash asoslari berilgan. Bunday pechlarning prokat va temirchilik sexlarida turli profilli (ko'rinishli) mahsulotlarni qizdirishda keng qo'llanilishiga ularda yoqilg'ining unchalik katta bo'lmagan solishtirma sarfida yuqori mahsuldorlikning ta'minlanishi muhim omil bo'ldi.

Alangali qizdirish pechlarida ishlov berilayotgan mahsulot pechning tagligida joylashtiriladi. Qizdirilayotgan jismlarga issiqlik yoqilg'ining yonish mahsulotlaridan jismlar yuzasi orqali uzatiladi. Shuning uchun pechning ishchi hajmi yoqilg'ining to'liq yonishi va yonish mahsulotlari bilan qizdirilayotgan jism o'rtasida jadal issiqlik almashinuvini ta'minlashi kerak.

Pechning ishi issiqlik va harorat rejimi (holati) ko'rsatkichlari bilan harakterlanadi.

Ishchi hajm uzunligi bo'ylab haroratning o'zgarishini harorat rejimi ifodalaydi.

Pechning ishchi hajmi uzunligi bo'yicha metall olayotgan issiqlik oqimlarining o'zgarishi harakterini issiqlik rejimi (holati) ko'rsatadi.

Ishchi hajmida doimiy harorat ushlab turiladigan pechlar kamerali pechlar deb ataladi. Bu shartning bajarilishi uchun yoqilg'i yoquvchi qurilmalar pechning perimetri bo'ylab joylashtirilishi kerak.

Pechning ishchi hajmining uzunligi bo'yicha harorat o'zgarib borsa bunday pechlar metodik pechlar deb ataladi. Bunday pechlarning ishchi hajmi odatda doimiy yoki o'zgaruvchan kesimga ega bo'lgan uzunchoq ko'rinishda bo'ladi. Yoqilg'i yoqish qurilmalari pechning old devori tomonida o'rnatiladi. Metodik pechlar odatda qarshi yo'nalishli sxemada ishlatiladi.

Ishchi hajmda haroratning o'zgarish harakteriga qarab metodik pech quyidagi qismlarga bo'linadi: - metallni oldindan (birlamchi) qizdirish-metodik qism; - metall sirtini jadal qizdirish - pishitish qismi; - metall kesimi bo'yicha haroratni bir xil qiymatga keltirish - maromlash qismi. Yarimtayyor mahsulotni qizdirish rejimiga qarab qismlar soni va ulardagi issiqlik holati tanlab olinadi.

1. Kurs loyihasining maqsadi va talablari.

Kurs loyihasini bajarishdan maqsad talabalarning «Yuqori haroratli jarayon va qurilmalar» fanidan olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash.

Ishni bajarish jarayonida talaba loyihalananayotgan pechning konstruksiyalari va xususiyatlari, hamda ularning asosiy elementlari bilan tanishadi, alangali pechlarni hisoblash va loyihalash uslublarini o'rganadi va pechlarning konstruktiv tuzilishi, ularning ishchi ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishi aniqlanadi.

2. Kurs loyihasining tarkibi.

Kurs loyihasi quyidagilarning bajarilishini nazarda tutadi:

- yonish jarayonini hisoblash;
- pechning ishchi hajmida issiqlik almashinuvini hisoblash;
- metallni qizdirish vaqtini hisoblash;
- pechning asosiy o'lchamlari va pech devorlarining hamda ularning izolyatsiyasining turi va qalinligi aniqlanadi;
- pechning issiqlik balansi hisoblanadi.

Qushimcha ravishda havoni qizdirish uchun rekuperatorlarni tanlash va hisoblash masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Kurs loyihasining tushuntirish xati A-4 formatdagi qog'ozda 15-25 bet hajmida bayon etiladi. Barcha hisoblar CI o'lchovlar tizimida bajarilishi lozim. Ma'lumotnoma, nomogramma va boshqa manbalardan olingan kattaliklar ham CI o'lchovlar tizimida bo'lishi shart.

Hisobot grafiklari A-4 formatdagi millimetrli qog'ozda bajariladi. Loyihaning chizmalari A-4 formatdagi qog'ozda bajariladi va ularda albatta asosiy konstruktiv o'lchamlar devor va izolyatsiyaning turi va qalinliklari ko'rsatilishi shart.

Alangali pechlarni hisobini 3 qisimli metodik pech hisobi misolida ko'rib chiqamiz. Kamerali pechlarni hisoblash metodik pech hisobi kabi bajariladi. Kamerali pechlarda metallni qizdirish hisobi metodik pechning pishitish yoki maromlash qismlarida qizdirishni hisoblash usulida olib boriladi;

3. Uch qisimli alangali pechni hisoblash. (Ilova 1)

Boshlang'ich kattaliklar

1. Pech unumdorligi - $G = 65000 \text{ kg / soat}$.

2. Qizdiriladigan metall – kesim o'lchamlari - $0,2 \times 0,2 \text{ m}$, uzunligi - $0,9 \text{ m}$, materiali– St.3 bo'lgan yarim mahsulot.

3. Metallni qizdirish parametrlari.

- metallning boshlangich harorati – $t_m = 0^\circ\text{C}$
- metall sirtining oxirgi harorati - $t = 1200^\circ\text{C}$
- kesim bo'yicha haroratlarning oxirgi farqi - $\Delta t_k = 50^\circ\text{C}$.

4. Yoqilg'i – domna gazi

5. Havoning qizdirilish harorati – $t_{\text{havo}} = 350^\circ\text{C}$.

6. Chiqarib tashlanayotgan gazlar harorati – $t_{\text{ch}} = 950^\circ\text{C}$.

7. Domna gazining tarkibi: CO_2 - 10,0 %; CO – 27,4 %; H_2 - 3,3% ; CH_4 - 0,9%; N_2 - 58,4 %

8. Yoqilg'ining namligi - $W = 25 \text{ g / nm}^3$.

9. Quruq gazning quyi yonish issiqligi – $Q_q^i = 3783,6 \text{ kDj / nm}^3$

3.1.Yoqilg'i yonishini hisoblash.

Yoqilg'i yonishini hisoblashdan maqsad:

- yoqilg'i birligini yoqish uchun zarur bo'ladigan havo miqdorini aniqlash;

- Yoqilg'i birligini yoqqanda hosil bo'ladigan yonish mahsulotlarining tarkibi va miqdorini aniqlash;

- Yoqilg'i haroratini aniqlash.

Yoqilg'ining yonishini hisoblash yoqilg'ining ishchi massasiga nisbatan olib boriladi. Agar yoqilg'ining tarkibi quruq massaga nisbatan berilgan bo'lsa, tashkil etuvchilarning har birini qayta hisoblash koeffitsiyenti K –ga ko'paytirib ishchi massaga o'tish kerak.

$$C^P = C^c \cdot K; \quad H^P = H^c \cdot K; \quad N^P = N^c \cdot K \quad (1)$$

Bir turdagi massadan ikkinchi turdagi massaga o'tishning qayta hisoblash koeffitsiyenti 3-ilovadan aniqlanadi.

Quruq domna gazining tarkibini ishchi massasiga o'tkazamiz.

a) 100 nm^3 nam gazdagi namlik hajmi:

$$\text{H}_2\text{O} = \frac{100 \cdot W}{803,6 + W} = \frac{100 \cdot 25}{803,6 + 25} = 3,02\% \quad (2)$$

b) yoqilg'ining ishchi massasiga qayta hisoblash koeffitsiyenti (I-3):

$$K = \frac{100 - \text{H}_2\text{O}}{100} = \frac{100 - 3,02}{100} = 0,97 \quad (3)$$

v) (1) tenglamaga asosan yoqilg'i ishchi massasining tarkibi:

$$\text{CO}_2^P = 9,7\%; \quad \text{CO}^P = 26,58\%; \quad \text{H}_2^P = 3,2\%;$$

$$\text{CH}_4^P = 0,87\%; \quad \text{N}_2^P = 56,65\%$$

3.2. Yoqilg'ining yonish issiqligi.

Yoqilg'i birligi yoqilganda ajralib chiqadigan issiqlik miqdori yoqilg'ining yonish issiqligi deb ataladi. Texnikada yuqori va quyi yonish issiqliklarini ajratishadi. Yonish mahsulotlari tarkibidagi suv bug'lari 100°C dan 20°C gacha sovitilgan sharoitda olingan issiqlik quyi yonish issiqligiga to'g'ri keladi. Quyi Q_q^i va yuqori Q_{yu}^i issiqliklar orasidagi bog'lanish quyidagicha bo'ladi:

$$Q_{yu}^i = Q_q^i + 25 + 22(9H^i + W^i), \text{kJ/kg} \quad (4)$$

Suyuq va qattiq yoqilg'ilar uchun quyi yonish issiqligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_q^i = 4, \frac{19}{81C^c} + 300HP - 26(O^i - S^i) - 6(W^i - 9H), \text{kJ/kg} \quad (5)$$

Gaz holatidagi yoqilg'i uchun:

$$Q_q^i = 4, \frac{19}{85}, 55CH_4 + (141,1C_m H_n + 30,2CO + 25,8H_2 + +55,9H_2, S), \text{kJ/kg} \quad (6)$$

Bu formulalarda yoqilg'i tarkibidagi komponentlar foizlarda berilgan.

1. (6) formula bilan gaz uchun quyi yonish issiqligini aniqlaymiz:
2. $Q_q^i = 4,19 \cdot (85,55 \cdot 0,87) + (30,2 \cdot 26,58) + (25,8 \cdot 3,2) = 4021 \text{ kJ/kg}$

3.3. Yoqilg'ini yoqish uchun zarur bo'lgan havo miqdori.

Yoqilg'ini yoqish jarayonida oksidlovchi sifatida havo tarkibidagi kislorod ishlaydi. Yoqilg'i birligining to'liq yoqilishi uchun zarur bo'lgan havo miqdorining eng kam qiymati havoning nazariy miqdori deb ataladi. Amalda yoqilg'ini yoqish uchun nazariyga nisbatan bir muncha ko'proq havo kerak bo'ladi. Havo sarfining haqiqiy qiymati V_a ning nazariy qiymati V_t -ga nisbati havoning ortiqlik koeffitsiyenti - deb ataladi.

$$\alpha = \frac{V_a^A}{V_t^T} \quad (7)$$

1 kg qattiq yoki suyuq yoqilg'ini yoqish uchun zarur bo'lgan havo miqdorining nazariy qiymati quyidagicha topiladi:

$$V_{\beta}^T = ,0889 \cdot (C^i + 0,375S^i) + (0,265H^i - 0,0333O^i) m^3 / kg \quad (8)$$

- 1 mm³ gaz holatidagi yoqilg'ini yoqish uchun esa:

$$V_{\beta}^T = 0,0478 \frac{[0,5CO + 0,5H_2 + 1,5H_2S + \sum (m + \frac{n}{4}) C_m H_n - O_2] m^3}{m^3} \quad (9)$$

Yoqilg'ini yoqish uchun zarur bo'lgan havo miqdorining haqiqiy qiymati V_{β}^A (7) formuladan aniqlanadi:

$$V_{\beta}^A = \alpha V_{\beta}^T \quad (10)$$

$$\alpha = 1,02 + 1,45$$

3. Havoning nazariy miqdori 9 formula bilan topiladi:

$$V_{\beta}^T = 0,0476 \cdot \left[(0,5 \cdot 26,58) + (0,5 \cdot 3,2) + \left(1 + \frac{4}{4} \right) \cdot 0,87 \right] = 0,79 \frac{m^3}{m^3}$$

4. $\alpha = 1,05$ da havoning haqiqiy miqdori

$$V_{\beta}^A = \alpha \cdot V_{\beta}^T = 1,05 \cdot 0,79 = 0,83 m^3 / m^3$$

3.4 Yonish mahsulotlarining miqdori va tarkibi.

Qattiq yoki suyuq yoqilg'i birligini yoqqanda ajralib chiqadigan yonish mahsulotlarining miqdori (nm³ / kg da) quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$V_{CO_2} = 0,0187C^i$$

$$V_{H_2O} = 0,111H^i + 0,124W^i + 0,0161V_{\beta}^A$$

$$V_{SO_2} = 0,007S^i$$

$$V_{O_2} = 0,21(\alpha - 1)V_{\beta}^T$$

$$V_{N_2} = 0,008N^i + 0,79V_{\beta}^A \quad (11)$$

Gaz holatidagi yoqilg'i yoqilganda esa quyidagi formulalar orqali (nm³ / kg da) aniqlanadi:

$$V_{CO_2} = 0,01(CO_2 + CO + CH_4 + \sum C_m H_n)$$

$$V_{H_2O} = 0,01(H_2 + H_2S + \frac{\sum \pi}{2C_m H_n} + 0,0161V_{\beta}^A)$$

$$V_{SO_2} = 0,01H_2S$$

$$V_{O_2} = 0,21(\alpha - 1)V_{\beta}^T$$

$$V_{N_2} = 0,01(N_2 + 79V_{\beta}^T) \quad (12)$$

$$5. V_{CO_2} = 0,01(9,7 + 26,58 + 0,87) = 0,372 \text{ nm}^3 / \text{nm}^3$$

$$V_{H_2O} = 0,01 \left(3,2 + \frac{4}{2} \cdot 0,87 + 0,124 \cdot 25 \right) + 0,0161 \cdot 0,83 \\ = 0,093 \text{ nm}^3 / \text{nm}^3$$

$$V_{O_2} = 0,21(1,05 - 1)0,79 = 0,008 \text{ nm}^3 / \text{nm}^3$$

$$V_{N_2} = 0,01(56,65 + 79 \cdot 0,83) = 1,22 \text{ nm}^3 / \text{nm}^3$$

6. Yonish mahsulotlarining umumiy miqdori quyidagicha bo'ladi:

$$V_{umum} = V_{CO_2} + V_{H_2O} + V_{SO_2} + V_{O_2} + V_{N_2} \quad (13)$$

$$V_{umum} = 0,372 + 0,093 + 0,008 + 1,22 = 1,693 \text{ nm}^3 / \text{nm}^3$$

7. Yonish mahsulotlarining foizli miqdori:

$$CO_2 = \frac{V_{CO_2}}{V_{umum}} \cdot 100\%; \quad H_2O = \frac{V_{H_2O}}{V_{umum}} \cdot 100\%; \quad (14)$$

shu kabi.

$$CO_2 = \frac{0,372}{1,693} \cdot 100\% = 22,0\%;$$

$$H_2O = \frac{0,093}{1,693} \cdot 100\% = 5,49\%;$$

$$O_2 = \frac{0,008}{1,693} \cdot 100\% = 0,47\%;$$

$$N_2 = \frac{1,22}{1,693} \cdot 100\% = 72,06\%;$$

8. Gaz yonish mahsulotlari va havoning solishtirma og'irligi quyidagi formula bilan aniqlanadi :

$$\gamma = \frac{\mu_{CO_2} \cdot CO_2 + \mu_{CO} \cdot CO + \mu_{H_2} \cdot H_2 + \dots + \mu_{H_2O} \cdot H_2O}{22,4 \cdot 100}, \quad \frac{\text{kg}}{\text{nm}^3} \quad (15)$$

Bu yrda $\mu_{CO_2} \cdot CO_2$ va boshq. – gaz, yonish mahsulotlari va havo komponentalarining molekulyar og'irligi:

$CO_2 \cdot CO$ va shunga o'xsh.. - gaz, yonish mahsulotlari va havo komponentalarining foizli tarkibi.

a) Yoqilg'i (gaz) ning solishtirma og'irligi:

$$\gamma_{gaz} = \frac{(44 \cdot 9,7) + (28 \cdot 26,58) + (2 \cdot 3,2) + (16 \cdot 0,87) + (28 \cdot 56,65)}{22,4 \cdot 100}$$

$$= 1,24 \text{ kg/nm}^3$$

b) Yonish mahsulotlarining solishtirma og'irligi:

$$\gamma_{yonish} = \frac{(44 \cdot 22,0) + (18 \cdot 5,49) + (32 \cdot 0,47) + (28 \cdot 72,06)}{22,4 \cdot 100}$$

$$= 1,38 \text{ kg/nm}^3;$$

v) Havoning solishtirma og'irligi:

$$\gamma_{havo} = \frac{(21 \cdot 32) + (28 \cdot 79) + (0,0116 \cdot 0,830)}{22,4 \cdot 100} = 1,24 \text{ kg/nm}^3;$$

3.5. Yonish mahsulotlarining harorati.

Yonish harorati deganda yoqish natijasida beriladigan issiqlik ta'sirida yonish mahsulotlari oladigan harorat tushuniladi. Nazariy t_t va kalorimetrik t_k yonish haroratlari farqlanadi. Nazariy haroratni aniqlash murakkab ish. Yuqori haroratlar ta'sirida SO^2 va N_2O ning dissotsiatsiyasi bo'lishi mumkin va ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori kamayadi. Shuning uchun nazariy va kalorimetrik haroratlar orasidagi farq kelib chiqadi. 1600 - 1700 °C haroratlarda SO_2 va N_2O dissotsiatsiyasi 0,5 % oshmaydi, shuning uchun texnik hisoblarda nazariy harorat o'rniga kalorimetrik haroratdan foydalanish mumkin.

Kalorimetrik haroratni hisoblash uchun ketma - ket yaqinlashtirish usuli ishlatiladi.

9. 1 nm³ yonish mahsulotlarining issiqlik miqdori aniqlanadi.

$$i = \frac{Q_q^i + Q_{gaz} + Q_{havo}}{V_{umu}} \quad (16)$$

bunda $Q_{gaz} = C_{gaz} \cdot t_{gaz}$ - gazning fizik issiqligi kDj/kg yoki kDj/m³;

$Q_{havo} = V_{havo}^d \cdot C_{havo} \cdot t_{havo}$ - yoqilg'i birligini yoqish uchun zarur bo'lgan havo miqdorining fizik issiqligi, kDj/m³

C_T, C_B - havo va gazning issiqlik sig'imi, $\frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot \text{Grad}}$, $\frac{\text{kJ}}{\text{m}^3 \cdot \text{Grad}}$

Turli gazlarning turli haroratlardagi o'rtacha issiqlik sig'imi va o'rtacha issiqlik miqdor [1] va 4 ilovalardan olinadi. .

a) gazning fizik issiqligi e'tiborga olinmasa bo'ladi, chunki gaz oldindan qizdirilmaydi;

b) 350 °C gacha qizdirilgan havoning fizik issiqligi

$$Q_{\text{havo}} = 0,83 \cdot 1,33 \cdot 350 = 386,37 \text{ kJ/m}^3;$$

v) (16) formula bilan yonish mahsulotlarining issiqlik miqdori aniqlanadi:

$$i = \frac{4021 + 386,37}{1,693} = 2597,15 \text{ kJ/m}^3;$$

10. 4 ilovadan yonish mahsulotlarining (16) formula bilan aniqlangan issiqlik miqdori qiymatiga to'g'ri keladigan kalorimetrik harorat aniqlanadi. Buning uchun $i = 2597,15 \frac{\text{kJ}}{\text{m}^3}$,ni 4,19 ga bo'lamiz,

$i = 620 \text{ kkal/m}^2$ topiladi. Yoqilg'ining berilgan namligi 25% ligini e'tiborga olib, 5 ilovadan $t'_k = 1660^\circ\text{C}$ topamiz. .

a) 1 nm^3 yonish mahsulotlarining t'_k ga mos keladigan issiqlik sig'imining o'rtacha qiymati - $C'_{n.c.}$ - aniqlanadi.

$$C'_{n.c.} = \frac{C_{\text{CO}_2} \cdot \text{CO}_2 + C_{\text{HO}_2} \cdot \text{H}_2\text{O} + C_{\text{N}_2} \cdot \text{N}_2 + \dots}{100} \quad (17)$$

bunda $\text{CO}_2, \text{H}_2\text{O}$ va shunga o'xsh. – berilgan komponentning yonish mahsulotlari tarkibidagi foizli miqdori;

$C_{\text{CO}_2}, C_{\text{HO}_2}$ va shu kabilar – tegishli komponentning t'_k ga mos ravishda [5] olingan issiqlik sig'imi

$$C'_{n.c.} = \frac{(22,0 \cdot 2,376) + (5,46 \cdot 1,873) + (0,47 \cdot 1,546) + (72,06 \cdot 1,467)}{100} \\ = 1,69 \frac{\text{kJ}}{\text{m}^3 \cdot \text{Grad}} ;$$

b) 1 nm^3 yonish mahsulotlarining issiqlik miqdori aniqlanadi:

$$i = C'_{n.c.} \cdot t'_k; \quad \frac{\text{kJ}}{\text{nm}^3};$$

$$i = 1,69 \cdot 1660 = 2805,4 \frac{\text{kJ}}{\text{nm}^3}; \quad (18)$$

Olingan i' qiymatini (16) formula bilan topilgan i qiymati bilan solishtiramiz. Agar farq $\pm 0,5\%$ dan oshmasa, t'_k ning topilgan qiymati haqiqiy qiymatga teng bo'ladi va $t'_k = t_k$, agar farq katta bo'lsa, hisoblarni t''_k ning, ishorasiga qarab, 100°C ga katta yoki kichik qiymatlari uchun bajarish kerak. Bizning holat uchun farq $7,4\%$, ya'ni: $i'-i$; $2805-2597$ q208G`2805·100q7,4%, shuning uchun i'' ni hisoblashni t_k q1550°C qiymati uchun bajaramiz.

v) t_k q 1550°C da yonish mahsulotlarining issiqlik sig'imi quyidagicha bo'ladi:

$$C'_{n.c.} \frac{(22 \cdot 2,359) + (5,49 \cdot 1,848) + (0,47 \cdot 1,538) + (72,06 \cdot 1,438)}{100} = 1,68 \frac{\text{kJ}}{\text{m}^3 \cdot \text{Grad}} ;$$

g) Issiqlik miqdorining qiymati :

$$i'' = 1,68 \cdot 1550^\circ = 2604,0 \frac{\text{kJ}}{\text{m}^3};$$

i va i'' orasidagi farq $0,26\%$ ni tashkil etdi, bizni qoniqtiradigan qiymat va hisob ishlari to'xtatiladi;

d) kalorimetrik haroratning yakuniy qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$t_k = t'_k \pm \frac{i-i'}{i''-i} \cdot 100; \quad (19)$$

$$t_k = 1660 - \frac{2597,15 - 2805,4}{2604,00 - 2805,4} \cdot 100 = 1557^\circ\text{C}$$

(19) formuladagi + ishorasi $t_k' < t_k''$ da, - minus ishorasi $t_k' > t_k''$ da.

4. Pechning ishchi hajmidagi issiqlik almashinuvini hisoblash.

Pechning ishchi hajmidagi issiqlik almashinuvini hisoblashdan maqsad keltirilgan nurlanish koeffitsiyentini aniqlashdir.

Gazlarning harorati 800°C dan yuqori bo'lgan pechlarda metall sirtiga berilayotgan issiqlikning $85-95\%$ nurlanish bilan, qolgani esa konveksiya usulida uzatiladi.

Keltirilgan nurlanish koeffitsiyenti q ni 10% ko'paytirish bilan konveksiya usulida uzatilayotgan issiqlik miqdori topiladi.

Keltirilgan nurlanish koeffitsiyentini hisoblash uchun pech ishchi hajmining uzunligi - L , t eni - V va ishchi hajm balandligi - h ni bilish kerak. Boshlang'ich paytda ushbu kattaliklar taxminiy olinishi mumkin,

lekin metallning qizdirilish vaqti hisoblangandan keyin aniq qiymatlari topilishi kerak

1. Pech ishchi hajmining asosiy o'lchamlarini aniqlaymiz.

a) Ishchi hajm kengligi qizdirilayotgan mahsulotning uzunligi - L va qatorlar soni - n ga bog'liq.

$$B = n \cdot L + (0,25 \div 0,3) \cdot (n + 1), m \quad (20)$$

Bunda, $0,25$ Q $0,3$ - pechning yon devorlari bilan mahsulot orasidagi tirqish.

$$B = 3 \cdot 0,9 + 0,3 \cdot 4 = 3,5 m;$$

b) Amaliyotdan kelib chiqqan xolda ishchi hajm balandligi quyidagicha olingan: metodik qismda $h_{met} = 0,6$ Q $1,2$ m, pishitish qismida - $h_{sv} = 1,6$ Q $2,3$ m, maromlash qismida $h_t = 1,0$ Q $1,3$ m .

Bizning misolda $h_{met} = 1,0$ m,

$$h_{sv} = 2,0 m,$$

$$h_t = 1,2m$$

v) Pech tagligining qismlar bo'yicha yuzasi:

$$F = VL;$$

$$F_{met} = 3,5L_{met}; F_{cv} = 3,5 L_{sv}; F_t = 3,5 L_t \quad (21)$$

g) Pech shipi va devorlarining ichki yuzasi qismlar bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$F^\circ = 2hl + Bl, m^2; \quad (22)$$

$$F_{met}^\circ = 2 \cdot 1,0l_{met} + 3,5l_{met} = 5,5l_{met};$$

$$F_{sv}^\circ = 2 \cdot 2,0l_{sv} + 3,5l_{sv} = 7,5l_{sv};$$

$$F_g^\circ = 2 \cdot 1,2l_g + 3,5l_g = 5,9l_g;$$

d) Ishchi hajmning qismlar bo'yicha gaz bilan to'ldirilgan hajmini o'rab turgan barcha elementlar yuzalarining yig'indisini aniqlaymiz:

$$F_{met}^{umum} = 3,5l_{met} + 5,5l_{met} = 9,0l_{met};$$

$$F_{sv}^{umum} = 3,5l_{sv} + 7,5l_{sv} = 11,0l_{sv};$$

$$F_T^{umum} = 3,5l_T + 5,9l_T = 9,4l_T;$$

e) Qismlar bo'yicha gaz bilan to'ldirilgan ishchi hajmlar aniqlanadi:

$$V = h \cdot F, \text{ m}^3 \quad (23)$$

$$V_{\text{met}} = 1,0 \cdot 3,5l_{\text{met}} = 3,5l_{\text{met}},$$

$$V_{\text{sv}} = 2,0 \cdot 3,5l_{\text{cv}} = 7l_{\text{sv}},$$

$$V_{\text{T}} = 1,2 \cdot 3,5l_{\text{T}} = 4,2l_{\text{T}},$$

2. Qismlar bo'yicha nurning o'rtacha samarador uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$S = 0,9 \cdot \frac{4V}{F_{\text{umum}}}; \quad (24)$$

$$S_{\text{met}} = 0,9 \cdot \frac{4 \cdot 3,5 l_{\text{met}}}{9,0 l_{\text{met}}} = 1,40 \text{ m};$$

$$S_{\text{sv}} = 0,9 \cdot \frac{4 \cdot 7,0 l_{\text{sv}}}{11,0 \text{ sv}} = 2,29 \text{ m};$$

$$S_{\text{T}} = 0,9 \cdot \frac{4 \cdot 4,2 l_{\text{T}}}{9,4 l_{\text{T}}} = 1,60 \text{ m};$$

3. Qismlar bo'yicha nurning o'rtacha samarador uzunligining nurlanayotgan gazlarning proporsional bosimiga ko'paytmasi quyidagicha:

$$9,81 \times 10^4 (P_{\text{CO}_2} S); \quad 9,81 \times 10^4 (P_{\text{H}_2\text{O}} S) \quad (25)$$

$$1 \text{ atm} = 9,81 \times 10^4$$

bunda $P_{\text{H}_2\text{O}} - \text{CO}_2$ va H_2O -larning son jihatdan yonish mahsulotlari tarkibidagi ulushlariga teng keladigan parsial bosimi, $\text{CO}_2=22/100=0,22$; $\text{H}_2\text{O}=5,49/100=0,055$.

$$P_{\text{CO}_2} S_{\text{met}} = 9,81 \cdot 10^4 \cdot (0,22 \cdot 1,40) = 3,0 \cdot 10^4 \text{ Pa} \cdot \text{m},$$

$$P_{\text{H}_2\text{O}} S_{\text{met}} = 9,81 \cdot 10^4 \cdot (0,0055 \cdot 1,40) = 0,75 \cdot 10^4 \text{ Pa} \cdot \text{m},$$

$$P_{\text{CO}_2} S_{\text{sv}} = 9,81 \cdot 10^4 \cdot (0,22 \cdot 2,29) = 4,90 \cdot 10^4 \text{ Pa} \cdot \text{m},$$

$$P_{\text{H}_2\text{O}} S_{\text{sv}} = 9,81 \cdot 10^4 \cdot (0,0055 \cdot 2,29) = 1,23 \cdot 10^4 \text{ Pa} \cdot \text{m},$$

$$P_{\text{CO}_2} S_{\text{T}} = 9,81 \cdot 10^4 \cdot (0,22 \cdot 1,60) = 3,46 \cdot 10^4 \text{ Pa} \cdot \text{m},$$

$$P_{\text{H}_2\text{O}} S_{\text{T}} = 9,81 \cdot 10^4 \cdot (0,0055 \cdot 1,60) = 0,86 \cdot 10^4 \text{ Pa} \cdot \text{m},$$

4. Qismlar bo'yicha ishchi hajmdagi gazlarning o'rtacha harorati :
-pishitish qismida:

$$T_{sv} = \sqrt{0,8 \cdot T_K \cdot T_{ux}}, K, \quad (26)$$

Bunda 0,8 – issiqlik almashinuv holati va ishchi kameraning mash'ala bilan to'ldirilganlik darajasini e'tiborga olgan –

$$t_{ux}^{sv} = 1200 + 250 = 1450^\circ C, \text{ koefitsiyent};$$

T_k va T_{ux} –kalorimetrik va pishitish qismidan ketayotgan gazlarning harorati;

- *kamerali pechlar uchun:*

$$t_{ux} = t_{p.k.} + (50 \div 150), ^\circ C$$

- *metodik pechlar uchun:*

$$t_{ux}^{sv} = t_{p.k.} + (200 \div 400), ^\circ C$$

$$t_{ux}^{sv} = 1200 + 250 = 1450^\circ C,$$

Pishitish qismida ketayotgan gazlarning o'rtacha harorati

$$T_y = 1450 + 273 = 1723 - T_k = 1557 + 273 = 1830$$

$$t_{ux}^{sv} = 1200 + 250 = 1450^\circ C,$$

(26) formula bo'yicha

$$T_{sv} = \sqrt{0,8 \cdot 1830 \cdot 1723} = 1588 K,$$

- *metodik qismida:*

$$t_{met} = \frac{t_{sv} + t_{ux}}{2}$$

$$t_{sv} = 1588 - 273 = 1315$$

$$t_{met} = \frac{1315 + 950}{2} = 1133^\circ C, \quad (27)$$

-*maromlash qismida:*

$$t_T = t_{PK} + 50^\circ C,$$

$$t_T = 1200 + 50^\circ C = 1250^\circ C \quad (28)$$

Uch atomli gazlarning pech qismlari bo'yicha qoralik darajasi - q_g – quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon^r = \varepsilon_{CO_2} + \varepsilon_{H_2O} \quad (29)$$

Bunda ε_{CO_2} va ε_{H_2O} – **5 va 6 ilovadan** aniqlanadigan nurlanishning qoralik darajasi. Qoralik darajasini aniqlashda ma'lum qism uchun harorat qiymati va atmosferaning qiymati topiladi. Kerakli atmosfera qiymatini aniqlash uchun $P_{CO_2 S}$ va $P_{H_2O S}$ larning qiymatini 1 atm bo'lish kerak.

$$\varepsilon_{met}^r = 0,135 + 0,07 = 0,205,$$

$$\begin{aligned}\varepsilon_{sv}^r &= 0,15 + 0,10 = 0,25, \\ \varepsilon_T^r &= 0,135 + 0,07 = 0,205\end{aligned}$$

qismlar bo'yicha g'isht terimining rivojlanish darajasi:

$$\begin{aligned}W &= \frac{F^\circ}{F}; \\ W_{met} &= \frac{5,5 l_{met}}{3,5 l_{met}} = 1,57; \\ W_{sv} &= \frac{7,5 l_{sv}}{3,5 l_{sv}} = 2,14; \\ W_T &= \frac{5,9 l_T}{3,5 l_T} = 1,69;\end{aligned}\tag{30}$$

5. Qismlar bo'yicha nurlanishning keltirilgan koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\delta = 5,77 \varepsilon^M \varepsilon^r \cdot \frac{\frac{1}{10} \cdot (1 - \varepsilon^r) + 1}{\frac{1}{\omega} \cdot (1 - \varepsilon^r) \cdot [\varepsilon^M + \varepsilon^r \cdot (1 - \varepsilon^M)] + \varepsilon^r}, \frac{Vt}{m^2 \cdot Grad};\tag{31}$$

bunda ε^M - metallning qoralik darajasi ($\varepsilon^M = 0,8$).

$$\delta_{met} = 5,77 \cdot 0,8 \cdot 0,205 \cdot \frac{\frac{1}{1,57} \cdot (1 - 0,205) + 1}{\frac{1}{1,57} \cdot (1 - 0,205) \cdot [0,8 + 0,205 \cdot (1 - 0,8)] + 0,205} = 2,25 \frac{Vt}{m^2 \cdot Grad};$$

$$\begin{aligned}\delta_{sv} &= 5,77 \cdot 0,8 \cdot 0,25 \cdot \frac{\frac{1}{2,14} \cdot (1 - 0,25) + 1}{\frac{1}{2,14} \cdot (1 - 0,25) \cdot [0,8 + 0,25 \cdot (1 - 0,8)] + 0,25} \\ &= 2,84 \frac{Vt}{m^2 \cdot Grad};\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}\delta_T &= 5,77 \cdot 0,8 \cdot 0,205 \cdot \frac{\frac{1}{1,69} \cdot (1 - 0,205) + 1}{\frac{1}{1,69} \cdot (1 - 0,205) \cdot [0,8 + 0,205 \cdot (1 - 0,8)] + 0,205} \\ &= 2,3 \frac{Vt}{m^2 \cdot Grad};\end{aligned}$$

Nurlanishning o'rtacha keltirilgan koeffitsiyenti:

$$\delta^{izl} = \frac{2,25 + 2,84 + 2,3}{3} = 2,463.$$

Konveksiyali issiqlik almashinuvi nurlanishli issiqlik almashinuvining 10% tashkil qiladi desak, nurlanishning o'rtacha keltirilgan koeffitsiyenti quyidagicha bo'ladi:

$$\delta = 1,1 \delta^{izl} = 1,1 \cdot 2,463 = 2,71$$

5. Metall qizdirilishining hisobi .

1. Qizdirish jarayonining oxirida metallning o'rtacha haroratini aniqlaymiz:

$$t_{o'r.m} = t_{P.K} - \frac{2}{3} \Delta t_K, \quad (32)$$

$$t_{o'r.m} = 1200 - \frac{2}{3} \cdot 50 = 1167^\circ\text{C},$$

bunda q_{tk} - metall kesimi bo'yicha haroratlarning farqining oxirgi qiymati.

7 Ilovadan $t_{o'r.k}$ q 1167 O S da metallning issiqlik miqdori $q_k = 818$ kDj/kg aniqlanadi.

Aniqlash yo'li quyidagicha: bizning metall stal - 3 bo'lgani uchun **7 ilovadagi** jadvaldan 0,30 olamiz. Kerakli haroratni tanlaymiz va metallning issiqlik miqdorini aniqlaymiz. Agar haroratning kerakli qiymati yo'q bo'lsa, ikkita yaqin qiymat oralig'ida interpolatsiya qilib tanlaymiz . Masalan, $201-183,5/100+67+183,5=185,225 \cdot 4,19=818$

2. Qizdirish jarayonining oxirida metall sirtiga yo'naltirilgan solishtirma issiqlik oqimini hisoblaymiz:

$$q_k = \frac{2 \lambda \Delta t_k}{2S} \quad (33)$$

bunda $2S$ - qizdirilayotgan metallning to'liq qalinligi, bizning misol uchun 0,2 m ga teng;

λ -harorat $t_{sr.k}$ ga teng holatda metallning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti;

Turli navli po'latlar uchun λ - 8,9, 10 ilovalardan aniqlanadi, tarkibida 1,5% gacha uglerodi bo'lgan po'latlar uchun esa quyidagicha aniqlanadi:

a) Uy harorati sharoitida uglerodli po'latning issiqlik o'tkazuvchanligi λ_0 - ni quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$\lambda_0 = 1,161 (60 - 8,7C - 14,4 M\pi - 29,0 Si) \text{ Vt/mgrad} \quad (34)$$

bunda: C, M_n, Si -komponentlarning foizlardagi miqdori

$$\lambda_0 = 1,161 (60-8,7 \cdot 0,03) = 69,3 \text{ Vt/mgrad}$$

b) Interpolatsiya usulida turli haroratlardagi issiqlik o'tkazuvchanlikni quyidagi bog'lanishlardan topamiz:

$$\lambda_{200} = 0,95 \lambda_0 \quad \lambda_{600} = 0,75 \lambda_0 \quad \lambda_{1000} = 0,68 \lambda_0$$

$$\lambda_{400} = 0,85 \lambda_0 \quad \lambda_{800} = 0,68 \lambda_0 \quad \lambda_{1200} = 0,73 \lambda_0$$

$t_{cp.k} = 1167^\circ\text{C}$ haroratda, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti: $\lambda = 48\text{Vt/m grad.}$ bo'ladi:

Ushbu koeffitsiyentni topish uchun interpolatsiyani amalga oshiramiz. Bizda $t = 1167^\circ\text{C}$, demak λ_{1000} va λ_{1200} oraliqda

$$\lambda_{1167} = \lambda_{1200} - \lambda_{1000} / 200 \cdot 67 + \lambda_{1000} = \text{javob} \cdot 69,3 \approx 48$$

$$q_k = \frac{2 \cdot 48 \cdot 50}{0,2} = 24000 \frac{\text{Vt}}{\text{m}^2 \cdot \text{Grad}}$$

5.1 Maromlash qismining hisobi.

3. Maromlash qismida gazlarning harorati :

$$t_r = 100 \cdot \sqrt[4]{\frac{24000}{2,71}} + \left(\frac{1473}{100}\right)^4 - 273 = 1264^\circ\text{C} \quad (35)$$

4. Maromlash qismida qizdirish vaqti:

$$\tau_3 = \frac{l_T \cdot 2S' l \rho n}{G}, \text{ soat} \quad (36)$$

Bunda ρ - metall zichligi, kg/m^3 ;

L_m - maromlash qismining uzunligi, $L_m = (3 + 5 \text{ m})$ deb qabul qilamiz

$$\tau_3 = \frac{4 \cdot 0,2 \cdot 0,9 \cdot 7800 \cdot 3}{65000} = 0,26, \text{ soat}$$

5. Furry kriteriysini aniqlaymiz:

$$F_0 = \frac{a\tau}{S^2}$$

a) Metallning issiqlik sig'imi - c

$$c = \frac{i_k}{t_{sr.k}}, \quad \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot \text{Grad}}$$

$$c = \frac{818}{1167} = 0,7, \quad \frac{\text{kJ}}{\text{kg} \cdot \text{Grad}} \quad (37)$$

b) Metallning harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti - a

$$a = \frac{\lambda}{c \cdot \rho}, \text{ m}^2/\text{soat}$$

$$a = \frac{48 \cdot 10^{-3}}{0,7 \cdot 7800} \cdot 3600 = 0,03 \text{ m}^2/\text{soat} \quad (38)$$

v) Furry quyidagiga teng bo'ladi:

$$F_0 = \frac{0,03 \cdot 0,26}{0,01} = 0,78$$

Chunki $2S=0,2$ demak $S=0,1$, $0,1^2=0,01$

6. Bio kriteriyni aniqlaymiz:

$$B_i = \frac{\alpha S}{\lambda}$$

a) Qizdirish jarayonining oxirida issiqlik berish koeffitsiyenti:

$$\alpha = \frac{q_k}{t_r - t_{p.k.}}, \quad \frac{Vt}{m^2 \cdot \text{Grad}}$$

$$\alpha = \frac{24000}{1264-1200} = 375, \quad \frac{Vt}{m^2 \cdot \text{Grad}} \quad (39)$$

b)

$$B_i = \frac{375 \cdot 0,1}{48} = 0,78$$

7. **11 ilovadan** $F_0 = \frac{\alpha r}{S^2}$ va $B_i = \frac{\alpha S}{\lambda}$ kriteriylari orqali Φ_1 va Φ_2 kriteriylarini aniqlaymiz.

$$\Phi_1 = 0,55 \quad \Phi_2 = 0,13$$

Buning uchun grafikdan avval $F_0 = 0,78$ va $B_i = 0,78$ orqali Φ_1 va shu usulda Φ_2 topiladi.

8. Metallning pishitish qismidan maromlash qismiga o'tayotganda sirtidagi harorat:

$$t_{n_2} = \frac{\Phi_2 \cdot t_{sv} + \Phi_1 \cdot t_r - (t_r - t_{p.k.})}{\Phi_1 + \Phi_2} \quad (40)$$

$$t_{n_2} = \frac{0,13 \cdot 1315 + 0,55 \cdot 1264 - (1264 - 1200)}{0,55 + 0,13} = 1180^\circ\text{C}$$

9. Pishitish qismidan maromlash qismiga o'tayotganda solishtirma issiqlik oqimi:

$$q_2 = \sigma \cdot \left[\left(\frac{T_{CB}}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_{n_2}}{100} \right)^4 \right], \quad \frac{Vt}{m^2}; \quad (41)$$

$$q_2 = 2,71 \cdot \left[\left(\frac{1588}{100} \right)^4 - \left(\frac{1453}{100} \right)^4 \right] = 51543,9, \quad \frac{Vt}{m^2};$$

10. Maromlash qismiga o'tayotganda metall kesimi bo'yicha haroratlar farqi:

$$\Delta t_2 = \frac{q_2 \cdot \beta}{2 \cdot \lambda}, \quad (42)$$

$$\Delta t_2 = \frac{51543.9 \cdot 0.1}{2 \cdot 48} = 54^\circ\text{C},$$

11. Metall o'qidagi harorat:

$$\begin{aligned} t_{c_2} &= t_{n_2} - \Delta t_2, \\ t_{c_2} &= 1180 - 54 = 1126^\circ\text{C}, \end{aligned} \quad (43)$$

12. Metallning o'rtacha harorati:

$$\begin{aligned} t_{o/r_2} &= t_{n_2} - \frac{2}{3} \cdot \Delta t_2, \\ t_{o/r_2} &= 1180 - \frac{2}{3} \cdot 54 = 1144^\circ\text{C}, \end{aligned} \quad (44)$$

5 ilovadan $t_{sr2} = 1144^\circ\text{C}$ haroratdagi issiqlik miqdori $801,13\text{kJ/kg}$ ga teng.

Po'lat st-3 bo'lgani uchun interpolyatsiya qilib $0,30$ tanlanadi va $1100 - 1200^\circ\text{C}$ oralig'i olinadi.

$$201 - 183,5 = \text{javob} / 100 \cdot 44 + 183,5 = \text{javob} 4,19 = 801,13$$

13. Issiqlikdan foydalanish koeffitsiyenti:

a) Pishitish qismida:

$$\eta_{sv} = \frac{Q_q^i + Q_{havo} + Q_{gaz} - Q_{sv}}{Q_q^i}, \quad (45)$$

Bunda Q_B, Q_r - isitilgan gaz va havo bilan keltirilgan fizik issiqlik («Yonish mahsulotlarining harorati») bo'limidagi 9 a, b punktlarga qaralsin);

Q_{CB} –Yonish mahsulotlari bilan pishitish qismidan olib ketilayotgan issiqlik miqdori.

$$Q_{sv} = V_{umum} \cdot i_{sv} = 1.693 \cdot 1885.5 = 3192.1 \text{ kJ/m}^3$$

$$\tau_{sv} = \frac{4021 + 386,37 - 3192,1}{4021} = 0,302;$$

b) pechda:

$$\tau_{umum} = \frac{Q_H^p + Q_B + Q_r - Q_{ux}}{Q_H^p}$$

bunda Q_{ux} - pechdan yonish mahsulotlari bilan olib ketilayotgan issiqlik miqdori;

$$Q_{ux} = V_{umum} \cdot i_{ux} = 1,693 \cdot 1257 = 2128,1 \text{ kJ/kg}$$

i_{yx} aniqlash uchun **4 ilovadan** foydalanamiz, unda $t_{yx}=950^{\circ}$ ni tanlab 25% namlik chizig'i bilan kesishgan nuqtada $i = 300 \text{ kkal/m}^2$ aniqlanadi. Qiymatni $300 \cdot 4,19 \cdot 1257$ o'tkazamiz

$$\tau = \frac{4021 + 386,37 - 2128,1}{4021} = 0,57$$

14. Metall issiqlik miqdorining o'sishi :

a) umumiy:

$$\Delta i = i_k - i_0, \text{ kDj/kg} \quad (46)$$

bunda i_k va i_0 , - metallning qizdirish jarayonining oxirida va qizdirishdan oldingi issiqlik miqdori

